

FRANSUZ TILIDA KO'CHIRMA NUTQ VA UNING IFODA USULLARI

Sayfullayev Baxshillo Nematulloevich

BuxDU fransuz filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqola kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo'nalishlaridan biri o'zga nutq va uning oddiy usuli bo'lgan ko'chirma nutqning fransuz tilidagi ifoda usullariga bag'ishlangan. Unda asosan diqqat e'tibor ko'chirma nutq (le discours direct)ning matniy xususiyatlariga qaratilgan. Shu bilan birga fransuz tilida o'zga nutq turlarining funksional-semantik xususiyatlariga izoh berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zga nutq, ko'chirma nutq, nutq fe'li, qo'shtirnoq, tire, ikki nuqta, zamon moslashuvi.*

Аннотация: *Статья посвящена способам выражения во французском языке чужой речи, являющейся одним из важных направлений категории коммуникативной цели, и ее простому приему, прямой речи. В нем основное внимание сосредоточено на текстовых особенностях прямой речи (le discours direct). При этом объясняются функционально-семантические особенности других типов речи во французском языке.*

Ключевые слова: *чужая речь, прямая речь, речевой глагол, кавычка, дефис, двоеточие, согласование времён.*

Abstract: *The article is devoted to the ways of expressing someone else's speech in French, which is one of the important areas of the category of communicative purpose, and its simple technique, direct speech. It focuses on the textual features of direct speech (le discours direct). At the same time, the functional and semantic features of other types of speech in French are explained.*

Key words: *someone else's speech, direct speech, speech verb, quotation mark, hyphen, colon, tense agreement.*

So'zlovchi hamma vaqt ham o'z fikrinigina bayon etibgina qolmay, ba'zan u o'zganing gapini ham o'z nutqi ichida ishlatadi. Shu asosda qo'shma gapning yana bir maxsus turi hosil bo'ladi. O'zganing gapini ifoda etuvchi shaxs muallif, uning gapi esa muallif gapi deyiladi. Muallifning ma'lum shaxs fikrini o'z nutqi ichida keltirishi o'zganing gapi, gapi ifoda qilinyotgan shaxs so'zlovchi sanaladi. So'zlovchi borliq haqida o'z fikrini emas, o'zgalarning fikri yoki suhbatini bayon qiladi. O'zga nutq orqali so'zlovchi adresatni o'zi yoki adresat amalga oshirgan voqea-hodisa mazmunidan xabardor qiladi. O'zga nutqning ifodalanishi turli uslubda turlicha bo'lib har biri o'ziga xos grammatik me'yorga ega.

Fransuz tilida o'zga nutqni uzatishning 3 xil turi mavjud[1, 254]:

Ko'chirma nutq (le discours direct)

O'zlashtirma nutq (le discours indirect)

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq (le discours indirect libre)

Ko'chirma nutqda o'zganing nutqi shakl va mazmun jihatdan o'zgartirilmay tinglovchiga yetkaziladi. So'zlovchining nutqini so'zma-so'z berishning zarurati bo'lmagan paytda o'zlashtirma gap qo'llaniladi. Ba'zan o'zganing gapi ko'chirma gap bilan o'zlashtirma gap oralig'ida bo'ladi. Bunda o'zganing fikri muallif gapisiz-so'zlovchining ishtirokisiz bayon qilinadi, ya'ni muallif

ko'chirma gapdagi so'zlovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun bunday gaplar o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap hisoblanadi [4, 294]. O'zga nutqning bu turi faqat badiiy adabiyotga xos bo'lib, muallif matniga qo'shilgan xolda asar qahramonlari fikr va tuyg'usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

O'zgarishsiz, aynan, berilgan gap ko'chirma gap deyiladi. Ko'chirma gap bo'lishli, bo'lishsiz va so'roq formalarda kelishi mumkin[2, 227]malina:

Il a demandé: "Où tu niches, gamin?"(Hugo)

Elle s'est étonné: "Pourquoi me dis-tu ça"(Laffitte).

Ko'chirma gap mustaqil gap bo'lib, unda fel zamoni nutq momenti bilan moslashmaydi[2, 227]:

Il s'intéresse (s'est intéressé): "Viendra-t-il au stade?"

Fransuz tilida ko'chirma nutq hodisasi quyidagi ifoda usullari orqali amalga oshiriladi :

a) nutq fe'li (dire-aytmoq, demander-so'ramoq, interpellier-murojaat qilmoq, s'écrier-hayqirmoq, baqirmoq va hokazo) ikki nuqta va tirelardan foydalanish orqali.

*La fillette le reconnut et **s'écria** : – Vous êtes mon professeur! – En effet. – Papa travaille dans son atelier. Il vous attend. Tout en le suivant à l'intérieur de la maison, Meredith remarqua immédiatement sa démarche étrange.*

Misoldan ko'rinadiki muallif nutqi ko'chirma nutqdan oldin kelganda nutq felini tejash va ko'chirma gaplarda ifodalangan turli xil emotsional holatlarni to'g'ri va tushunarli ifodalash maqsadida muallif va ko'chirma nutq ikki nuqta orqali ajratilgan va vertikal tartibda har bir ko'chirma nutq oldidan tire belgisi qo'llanilgan.

b) ko'chirma gap nutq fe'li va ikki nuqta (:) bilan kiritilmasdan ham matnda kelishi mumkin. Bunday holda muallif nutqi ko'chirma nutqdan keyin keladi va ular orasida hech qanday ajratuvchi belgi qo'yilmaydi.

– Que fabriquez-vous ici? demanda le surveillant. – Je viens voir ma soeur, elle travaille ici, répondit le jeune garçon. – Vous n'avez pas l'autorisation. Allez-vous-en! – Monsieur, je vous en prie, c'est une urgence!

Yuqoridagi holatda ko'chirma nutq so'roq yoki undov gap bo'lmasa muallif va ko'chirma nutq orasida vergul qo'yiladi.

- Nous serons sans doute obligés de nous soumettre à ces règlements, affirma Louis.

c) Ko'chirma nutq ifodalanishida qo'shtirnoq va tiredan bir vaqtning o'zida ham foydalanish mumkin. Bunday holda, qo'shtirnoqlar har bir satrda emas dialogning faqat boshida va oxirida qo'yiladi hamda tirelar so'zlovchilar o'zgarishini ko'rsatib keladi:

Elle est entrée rapidement dans son bureau « Je pense que je mérite une explication! – Non, je ne le pense pas. – Vous m'avez menti! Je ne le tolère pas! – Assieds-toi, je vais t'expliquer. » Elle s'est assise et a attendu pendant qu'il prenait une longue inspiration.

d) ko'chirma nutq ikki nuqta va qo'shtirnoq yordamida ham ifodalanadi. Bunda qo'shtirnoq (""") yordamida to'g'ridan-to'g'ri xabar qilingan gaplarni ajratish mumkin. Ko'chirma gapning bu shakli odatda nutq fe'li orqali kiritiladi va ikki nuqta (:) nutq fe'lidan keyin keladi.

1. Il m'a dit: « Quel beau spectacle! »

2. La mère de la chanteuse a révélé : « Je suis tellement fière de ma fille! »

Foydalanilgan adabiyot:

1. Hervé-D. Béchade. Syntaxe du français moderne et contemporain (Fondamental) . –Paris: France, 1993. –338.
2. Маллина Л. Е., Андрейчикова Л. П., Турниёзов Ў. Француз тили грамматикаси (Морфология, синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 280 б.
3. M.Grégoire, O.Thiévenaz. Grammaire progressive du français. Clé Internationale/Sejer. Paris 2017.
4. Фуломов А.Ф., Аскарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 315 б.
5. Rasulov, Z. I., & Saidov, K. S. (2022). Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language Evolution. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 8–12.
https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162_1_B0C234AB2BF7FF280FE2B272EAEA790F05DDC162.pdf.
6. Izomovich, R. Z., & Shavkatovich, S. X. UDC: 82 REDUCTION AS THE WAY OF THE LANGUAGE ECONOMY MANIFESTATION. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 68(15), 41-44.
https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_6_son_2020.pdf#page=70
7. Саидова, Мухайё. "Inglizcha poetik terminlarning o'zbek tilida berilishida shakl va mazmun munosabati." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 13.13 (2022).https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6714